

## О'ЗБЕКИСТОН HUDUDIDAGI ILK DAVLATLAR

*G'offorova Oytula Sayfullayevna*  
*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani*  
*Maktabgacha va Maktab Ta'lim Bo'limiga qarashli*  
*28-maktab Tarix fani o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbekiston hududidagi ilk davlatlarning kelib chiqishi haqida fikr yuritildi. Vatanimiz O'zbekistonda ilk davlatlarning paydo bo'lishi. Qadimiy davlatlarning nomlari va ichki va tashqi siyosati to'g'risida o'quvchilarga va shunga qiziquvchilarga ma'lumotlar berish. Har bir davlatning rivojlanishi, o'z taraqqiyotiga va inqiroziga ta'sir qilgan omillarni to'liq ochib berish. Hududimizda joylashgan qal'alar va ularning o'z davridagi istiqbollari nazar solish.

**Kalit so'zlar:** Ilk davlatchilik, Xorazm, Baqtriya, Dovon davlati, Kang' davlati, So'g'd davlati, Kushonlar davlati, quldorlik, feodalizm, qabila, urug', qal'alar nomi va ta'rixi.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается возникновение первых государств в Узбекистане. Возникновение первых государств на нашей родине Узбекистане. Предоставление информации студентам и всем, кто интересуется названиями древних государств, их внутренней и внешней политикой. В полной мере раскрыть факторы, повлиявшие на развитие каждой страны, ее развитие и кризис. Посмотрите замки, расположенные в нашем регионе и их перспективы в свое время.

**Ключевые слова:** Ранняя государственность, Хорезм, Бактрия, Дованское государство, Кангское государство, Согдийское государство, Кушанское государство, рабство, феодализм, племя, род, название и история крепостей.

### ABSTRACT

This article examines the emergence of the first states in Uzbekistan. The emergence of the first states in our homeland Uzbekistan. Providing information to students and anyone interested in the names of ancient states, their domestic and foreign policies. Fully reveal the factors that influenced the development of each country, its development and crisis. See the castles located in our region and their prospects in due time.

**Key words:** Early statehood, Khorezm, Bactria, Dovan state, Kang state, Sogdian state, Kushan state, slavery, feudalism, tribe, clan, name and history of fortresses.

Jahonning turli mintaqalarida ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi jarayonida ilk davlat uyushmalarining yuzaga kela boshlanganligini kuzatish mumkin. Dehqonchilikning va chorvachilikning paydo bo'lishi, xunarmandchilikning vujudga kelib taraqqiy etishi, mehnat quollarining takomillashishi mehnat unmdorligining oshishiga olib keldi. Ayni paytda urug' jamoasi xududiy qo'shni jamoasiga aylana bordi. Aholi joylashgan erlarni, dehqonchilik bilan mashg'ul vaholarni dushmandan himoya qilish, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy rivojlantirish va nazorat qilish zarurati ilk davlat birlashmalari rivojlanishining boshlanishiga sabab bo'ldi. Masalan miloddan avvalgi 4- ming yillikda Mesopotamiyada, mil. avvalga 3- ming yillik boshlarida Misrda ilk davlatlar paydo bo'ldi. O'zbekiston tarixiga doir voqea va hodisalarning tahliliga yangicha yondashish tufayli Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekiston xududida dastlabki davlatlarining tashkil topishi tarixiga 3- ming yil bo'ldi, degan ilmiy xulosaga kelish mumkin. O'zbekiston davlatchiligi borasida gap ketganda avvalambor Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlati nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyo hududidagi ilk davlatlardan sanalishini aytishimiz joiz deb o'ylayman. Davlat qurish ham oson emasligini bilamiz. Albatta, har bir fan davlatchilik tushunchasiga o'z aspekti doirasida ta'rif berishga harakat qiladi. Masalan, falsafiy kitoblarning ayrimlarida davlatga berilgan ta'rifda quyidagi mazmundagi so'zlar bor: "Jamiyatni tartibga solib turuvchi va boshqaruvchi siyosiy tashkilotga davlat deyiladi" yoki siyosatshunoslikka oid manbalarda "Jamiyatni boshqaruvchi va qonun bilan kafolatlovchi siyosiy tashkilotga davlat deyiladi" deyilgan. Tarixiy nuqtai nazardan aytganda davlat deb—muayyan boshqaruv apparatiga ega bo'lgan, mavjud qatlamlar manfaatini himoya qiluvchi tuzilmaga davlat deyiladi. Bugungi kunda ham davlatlar o'z tasarrufidagi qatlamlar – ziyolilar, tadbirkorlar, nafaqaxo'rlar, talabalar, dehqon va ishchilarni qonuniy himoya qiladi. Demak, qadimgi davrlar davlatlarida o'ziga xos boshqaruv shakli bo'lib, mavjud qatlamlarni himoya qilgan. Biroq tarixning guvohlik berishicha, qadimgi davlatlarda ko'proq amaldorlar (quldorlikda quldorlar, feodalizmga katta yer egalari va h.k.) manfaati himoya qilingan. Har bir davlat o'z davlatchilik tarixiga ega. Bizning O'zbekistonimiz hududida ham qadimgi davrlardan boshlab davlatchilik poydevoriga asos solingan. Bizda davlatchilikka xos boy tarixiy tajriba mavjud bo'lib, bu juda olis davrlarga borib taqaladi. Albatta, davlatlar o'z—o'zidan paydo bo'lmagan, buning o'ziga xos omillari mavjud. Hozirgi O'zbekiston hududida davlatchilik poydevori temir asri, ya'ni 1—mingyillik bilan chambarchas bog'liq. Chunki bu davrda hunarmandchilik yanada rivojlandi, dehqonchilik gurkirab o'sdi. Temirdan yasalgan mehnat quollarining keng tarqalishi mehnat unumdorligini oshirdi. Bu davr temirchi kasbining paydo bo'lishi va temirchilikning ixtisoslashuvi bilan xarakterlanadi. Bu hol ishlab chiqarishning yanada ilg'or usullariga o'tish va ikkinchi mehnat taqsimotining paydo bo'lishi uchun sharoit yaratdi. Ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti bu – hunarmandchilikning alohida ajralib

chiqishi va ixtisoslashuvi. Urug' jamoasi hududiy qo'shnicilik jamoasiga aylana bordi. Yangi yerlar va suv manbalari uchun qabilalar o'rtasida doimo kelishmovchiliklar bo'lib turgan. Qabila chegaralarini qo'riqlash, yangi yerlarni o'zlashtirish va boshqa qabilalar ustiga yurish qilish maqsadida qabilaviy harbiy ittifoqlar tashkil topa boshlagan. Bunday ittifoqlar tepasida urug', qabila boshliqlari turganlar. Ular o'z obro'si va ta'siri bilan mashhur kishilardan saylangan. Mil.av. 1–mingyillik boshlarida Markaziy Osiyo aholisi to'rt guruhga bo'lingan: zodagonlar, harbiylar, ziroatchilar va hunarmandlar. Xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari bo'lgan dehqonchilik va chorvachilik, shuningdek hunarmandchilik va mol ayirboshlashning rivojlanishi urug' va qabilalar ichida ayrim to'q oilalarning vujudga kelishiga olib keldi. Muntazam bo'lib turadigan harbiy to'qnashuvlar sharoitida urug'–qabila boshliqlarining ta'siri kuchayadi. Jamiyat endi harbiy demokratiya qonun–qoidalariga asosan yashay boshlaydi. Harbiy demokratiya–davlatga o'tish davrining boshqaruv shaklidir. Uni harbiy va qabila boshliqlari boshqarganlar. Davlatlar paydo bo'lishining formulasini quyidagicha belgilash mumkin: Qabila – urug' – hududiy qo'shnicilik jamoasi – davlat.. Shunday qilib, davlatlar tashkil topishidagi omillar quyidagilardan iborat bo'ldi: ikkinchi mehnat taqsimotining paydo bo'lishi; mulkiy tengsizlik (ayrim kishilarning boyib ketishi). Hozirgi O'zbekiston hududidagi ilk davlat birlashmalari Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlaridir. Qadimgi Xorazm – mil.av. 1–mingyillikning 8–6 asrlarida tashkil topgan. Bu davlat Xorazmdan tashqarida bo'lgan yerlarni birlashtirgan. Qadimgi Xorazm markazlaridan biri Ko'zaliqir shahri bo'lgan. U qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Uning dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan aholisi turli xil uy – qo'rg'onlarda va qishloqlarda yashaganlar. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo sotiq yuksak darajada rivojlangan. Baqtriya – hududi hozirgi Surxondaryo viloyati, janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston. Bu davlat ham mil.av. 8–6 asrlarda tashkil topgan. Baqtriyaning tarkibiga aynan Baqtriyadan tashqari Marg'iyona va So'g'diyona ham kirgan. Shuning uchun u qadimgi bir–biriga qarindosh bo'lgan elatlarning davlat birlashmasi deyilgan. Bu davlatning aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va savdo bilan shug'ullangan. Baqtriyaning shahar xarobalariga Qiliztepa, Uzunqir, Bandixon va boshqalar kirgan. Mil.av.530 yilda Eron ahamoniylaridan bo'lgan Kir II massagetlarga qarshi hujum qiladi. U malika To'maris bilan to'qnashadi va undan yengiladi. Undan so'ng yana Eron ahamoniylaridan bo'lgan Doro I mil.av. 519 yilda saklarga qarshi hujum qiladi va uning ham yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. Lekin ahamoniylar ayrim bosib olingan mamlakatlarni alohida viloyat – satrapliklarga bo'lib boshqaradilar. Satrap forscha “xshatra” ya'ni “viloyat” degan ma'noni anglatadi. Markaziy Osiyoning bosib olingan viloyatlari uch satraplikka bo'linadi. Mil.av. 5–4 asrlarda Markaziy Osiyo hududida dastlabki ahamoniylar tanga pullari tarqalgan. Mil.av.329 yilda Makedoniyalik Iskandar Markaziy Osiyoga hujum qiladi. Greklarga

qarshi Spitamen mardonovar kurashgan. Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoning ko'plab joylarini bosib oldi va 12 ta shahar qurdirgan. U bu yerda 3 yil hukmroklik qilgan. Uning vafotidan so'ng Markaziy Osiyo yerlarida Salavkiylar davlati tashkil topgan. Shu davrlardan boshlab ellinistik madaniyat tarkib topgan. Ellinlashtirish – Sharqqa yunon madaniyatining yoyilishi jarayoni, aralash madaniyatning – yunon va mahalliy sharq madaniyatining tashkil topish jarayoni. Mil.av. 3 asr o'rtalarida, ya'ni 250 yilda Baqtriya va Parfiya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi va Yunon–Baqtriya deb ataladi. Uning hukmdorlari greklar bo'lib, birinchi shohi Diodot bo'lgan. Parfiyada esa hokimiyat Mitridat I qo'liga o'tgan. Mitridat I Marg'iyonani bosib olgan, uning tarixi ko'proq Arshakiylar davri bilan bog'liq. Bu vaqtda So'g'diyona ham Baqtriya tarkibidan ajralib chiqadi. Yunon–Baqtriya davlati 120 yil yashaydi. A.Makedonskiydan keyingi davrlarda, ya'ni mil.av. 3 asrlarda Markaziy Osiyoda bir qancha davlatlar tashkil topadi. Ular quyidagilar: Dovon davlati – mil.av. 3 asrdan to milodning 2 asrlarigacha mavjud bo'lgan. Uning hududi hozirgi Farg'ona vodiysi bo'lib, Andijon va Namangan ham kirgan. Bu davlat tarixi ko'proq Xitoy manbalarida uchraydi, uning boshqa ataladigan nomlari – Parkana, Boxon, Polona bo'lgan. U o'zining uchqur samoviy otlari va vinosi bilan mashhur bo'lgan. Xitoyliklar bu davlatga tez–tez hujum qilib turgan va har gal ularni samoviy otlar bilan o'lpon to'lashga majbur etgan. Bu davlatning iqtisodiy asosini bog'dorchilik, yilqichilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo tashkil etgan. Dovon davlatining poytaxti Ershi shahri bo'lib, u hozirgi Andijon viloyatining Marhamat tumaniga to'g'ri keladi. Uning Uchqo'rg'on. Sho'rabashat kabi shaharlari mavjud bo'lgan. Kushonlar saltanati – mil.av. 140–130 yillarda yuechji qabilari shimoli–sharqdan kelib, Yunon–Baqtriya davlatiga yunonlar zulmidan ozod bo'lishiga yordam berdilar va shu yerda o'rnashib qoldilar. Beshta hokimlik – Guyshuan, Shuanmi, Xisi, Xyumi, Xuanmilarni birlashtirgan Kudzula Qadfiz I bu davlatga asos soladi. Ularning bu yerdagi dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo viloyati) bo'lgan. Keyinchalik Kanishka davrida poytaxt Peshovarga ko'chiriladi. Chunki ular sarhadlarini Hindistongacha kengaytiradi. Kushonlar davrida tangalar oltin, kumush va misdan zarb qilingan. Bu davlat o'sha davrlarning eng taraqqiy etgan davlatlari – Rim, Gretsiya, Xitoy, Eron, Hindiston kabi davlatlar bilan elchilik munosabatlarini yo'lga qo'ydi. Tarixchi olimlar yaqinda Skandinaviya yarim orolidan Kushonlar saltanatiga xos tanga pullarni topishgani bu davlatning boshqa davlatlar bilan savdo va diplomatik munosabatlari mustahkam bo'lganligini anglatadi. Kushonlar saltanatining madaniy yodgorliklariga – Xolchayon, Dalvarzintepa, Dalvarzin, Ayritom, Zartepa va Qoratepalar kiradi. Bu davlatda ijtimoiy sohaning hamma turlari – savdo, hunarmandchilik, zargarlik, me'morchilik (suyak va yog'och o'ymakorlik), hakkoklik (metallga naqsh tushirish), chorvachilik, dehqonchilik yaxshi rivoj topgan. Bu davlat rivojlangan quldorlik davlati bo'lib, feolizm kurtaklari namoyon bo'la boshlagan edi. Kushonlar saltanati eftalitlar

tomonidan inqirozga yuz tutdi. Vatanimiz hududida milodiy 4 asrlardan boshlab feodal munosabatlar tarkib topa boshlaydi. “Feod” yer degan ma’noni anglatib, bu davrlardan boshlab yerga egalik qilishning mavqei ortib boradi. Ilgarilari hunarmandchilik yetakchi bo’lgan bo’lsa, endi yeri bor zamindorlar mulkdor va boy kishilar hisoblangan. Bu davrda “dehqon” degan tushuncha “qishloq hokimi” degan ma’noni anglatgan. Hududimizda zaiflashib borayotgan Qang’ va Kushonlar saltanatidan asta-sekin ilk mustaqil feodal davlatlar ajralib chiqqa boshlaydi. Bu davlatlarga Xorazm, So’g’d, Toxariston, Choch va Eloq, Farg’ona kabi hokimliklar kirgan. Bu davlatlar hokimlari So’g’d va Farg’onada– ixshidlar, Toxaristonda–malikshohlar, Xorazmda–xorazmshohlar, Choch va Eloqda– budun va dehqonlar deb atalgan. Mahalliy davlatlardan tashqari vatanimiz hududida Yettisuv va Sharqiy Turkistondan kelganko’chmanchi chorvadorlarning Xiyoniylar, Sharqiy Sirdaryo va Orol bo’ylari orqali kelgan ko’chmanchi chorvador Kidariylar va Eftalitlar ham o’z ma’lum bir muddat davlatchiligini barpo etgan. Undan tashqari, 5 asrning ikkinchi va 6 asrning birinchi yarmida Oltoy va Janubiy Sibirdagi turklar birlashib, 558 yildan hududimizga kelib, uni egallaydi. Shu davrdan boshlab Turk hoqonligi davri boshlanadi. Vatanimiz davlatchiligi tarixida arablardan keyingi davr ham muhim o’rin tutadi. O’rta asrlarda, ya’ni 9 asrlardan boshlab arab xalifaligidan bir qancha mustaqil davlatlar ajralib chiqadi. Bu davlatlarga – Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G’aznaviylar, Xorazmshohlar kabilar kiradi. Bu davlatlarning taraqqiyot davri Sharqda uyg’onish davri deb ataladi. Uyg’onish davrida ilm–fan, san’at, adabiyot, me’morchilik, musiqa va san’atning boshqa turlari keng rivoj topdi va bu jarayonlar davlatlar yuksalishiga ijobiy ta’sir qildi. XULOSA Xulosa qilib aytganda, bizning jonajon diyorimizda ham necha yillar muqaddam davlatchilik poydevori qo’yilgan va ular o’z davrining yuksak taraqqiyot cho’qqisiga yetgan. Qolaversa, ular boshqa davlatlar davlatchiligida o’ziga xos poydevor bo’la olgan. Aytishimiz mumkinki, vatanimiz nafaqat ilm–fan, san’at va amaliy hunarmandchilik markazi, balki dunyoga dong’i ketgan davlatchilik tarixiga ega mamlakat hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Tarix ortga qaytmaydi to’plam. 2004-yil
2. I.Karimov “ Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” . 1998 -yil
3. I.Karimov “ Yuksak manaviyat yengilmas kuch”. 2008-yil
4. Azamat Zie “O’zbek davlatchiligi tarixi” 2000-yil